

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THE LITERARY-SUFI INTERPRETATION OF THE STAGES OF FANA,
CONTEMPLATION, AND THE SELF IN ISAJON SULTON'S NOVEL "ALISHER
NAVOI"**

Surayyo Tolibjonovna Jurayeva*Master's Student, Samarkand State Pedagogical Institute**Science ID: MSN-0826-0216**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Isajon Sulton, "Alisher Navoi" novel, Sufism, fana and baqa, tafakkur, nafs al-mutma'innah, Unsiya, artistic symbolism.

Received: 20.08.26**Accepted:** 21.08.26**Published:** 22.08.26

Abstract: This article examines the artistic and Sufi concepts in Isajon Sulton's novel "Alisher Navoi". The spiritual evolution of Navoi's inner world is analyzed through the essential Sufi stages: fana (annihilation of the self), tafakkur (contemplation of cosmic wisdom), and the states of nafs (specifically nafs al-mutma'innah). The author's artistic skill in integrating Quranic verses, the symbolism of nature, and the story of "Unsiya" is scientifically substantiated.

**ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANIDA FANO, TAFAKKUR VA
NAFS BOSQICHLARINING BADIY-TASAVVUFY TALQINI**

Surayyo Tolibjonovna Jo'rayeva*Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti**Ilmiy identifikatsiya raqami: MSN-0826-0216**Samarqand, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, "Alisher Navoiy" romani, tasavvuf, fano va baqa, tafakkur, nafs mutmainna, Unsiya, badiiy simvolizm, oniromantiya, irfoniylilik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tasavvufiy-irfoniyl ta'limotning badiiy va psixologik talqini tadqiq etiladi. Asarda Alisher Navoiy ma'naviy olamining shakllanishi va ruhiy takomili tasavvuf ilmining uch asosiy rukni – fano (o'zlikdan kechish), tafakkur (koinot hikmatini anglash) hamda nafs bosqichlari (xususan, nafs mutmainna) ramzi orqali tahlilga tortilgan. Muallifning qurt va urug'

metaforasi, “Unsiya” qissasi hamda Qur’oniylar oyatlar va tush tasviriga oid poetik vositalar orqali yozuvchining falsafiy fikrlash ko‘lami ilmiy asoslab beriladi.

ХУДОЖЕСТВЕННО-СУФИЙСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СТАДИЙ ФАНО, ТАФАККУРА И НАФСА В РОМАНЕ ИСАДЖОНА СУЛТОНА «АЛИШЕР НАВОИ»

Сурайё Толибжоновна Джурсаева

Магистрант Самаркандского государственного педагогического института

Научный идентификационный номер: MSN-0826-0216

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Исаджон Султон, роман «Алишер Навои», суфизм, фано и бако, тафаккур, нафс мутмаинна, Унсия, художественный символизм.

Аннотация: В данной статье исследуется художественно-суфийская концепция в романе Исаджона Султона «Алишер Навои». На основе текста произведения анализируется духовный мир Навои через такие ключевые суфийские категории, как фано (самоотречение), тафаккур (познание тайн мироздания) и стадии нафса (нафс мутмаинна). Научно обосновывается мастерство автора в использовании символики, аят из Корана и концепции «Унсия».

Kirish. O‘zbek nasri milliy va umumbashariy qadriyatlarni, xususan, Sharq irfoniylik tafakkurini badiiy qayta anglash bosqichiga qadam qo‘ydi. Zamonaviy adabiy jarayonda Isajon Sulton ijodi o‘zining falsafiy-intellektual teranligi, ramziy-metaforik ko‘lami va irfoniy idrokka tayanishi bilan ajralib turadi. Yozuvchining “Alisher Navoiy” romani buyuk mutafakkirning shunchaki biografik yoki tarixiy qiyofasini gavdalanitirish bilan cheklanmay, balki uning Ruh va Haqiqat yo‘lidagi ruhiy-tasavvufiy takomilini ichki va tashqi olam mutanosibligida ochib bergan murakkab falsafiy asardir.

Tasavvuf ta’limotida insonning Kamolot sari bosib o‘tadigan yo‘li (suluk) ruhiy holatlar (hol) va maqomlar orqali kechadi. Isajon Sulton roman matnida ushbu murakkab nazariy-irfoniy tushunchalarni kitobxonga vositalashtirilgan poetik obrazlar, Qur’oniylar ishoralar va koinot simbolikasi orqali yetkazadi. Asarda Navoiyning ichki kechinmalari, ijodiy kashf jarayoni va dunyoviy chalg‘ishlardan ma’naviy xalos bo‘lishi fano, tafakkur va nafs tushunchalari atrofida tugunlanadi.

Metodologiya va o‘rganilganlik darajasi

Tadqiqotda germeneytik, simbolik-poetik va strukturaviy-tahliliy metodlardan foydalanildi. O‘zbek adabiyotshunosligida Isajon Sulton nasri hamda tasavvufiy poetikani tadqiq etishda

akademik B.Valixojayev, N.Kamilov, I.Haqqul, H.Boltaboyev hamda D.Quronov kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanildi. Biroq “Alisher Navoiy” romanida bevosita tasavvufiy maqomlar (fano, baqo, nafs darajalari) va ularning poetik sintezi hali alohida tizimli ilmiy tadqiqot obyekti sifatiga to‘liq ko‘tarilgani yo‘q.

Asosiy qism: fano, tafakkur va nafs bosqichlarining badiiy tahlili

Tasavvuf falsafasida fano – insonning o‘z jismoniy, dunyoviy va nafsoniy borligidan xalos bo‘lib, Ilohiy Borliqda erishi ko‘rinishidir. Fano maqomiga erishmagan solik Baqo (boqiy mavjudlik) sharafiga topa olmaydi. Isajon Sulton ushbu nazariy g‘oyani quyidagicha poetiklashtiradi:

“Go‘yo pillaga kirgan qurt kabi, emoq-ichmoqni bas qilib, dunyo ishlaridan chekindiyu ipak yaratdi. Ya‘ni jondan kechib, ipak bo‘ldi. Go‘yo erga kirgan urug‘ kabi unib, lola bo‘lib ochildi: chechak bo‘ldi.”[1,58 b]

Matndagi ikki ramz – qurtning pillaga kirishi va urug‘ning tuproqqa ko‘milishi – solikning xilvat va riyozat bosqichidir. Qurt emoq-ichmoqni (moddiy ehtiyojlarni) cheklab, o‘zining jismoniy borligini fido qilish orqali qimmatbaho “ipak”ka aylanadi. Bu yerda jondan kechish – borliqqa erishish simvolidir. Xuddi shuningdek, tuproq bag‘rida yo‘q bo‘lgan urug‘ lola va chechak bo‘lib boqiy go‘zallik kashf etadi. Yozuvchi bu o‘rinda Navoiyning shoirlik va mutafakkirlik maqomiga yetishi uchun bosib o‘tgan ruhiy fano yo‘lini ta’sirchan ko‘rsatib beradi. Parchada insoniyatning yaratilish mohiyati va unga yuklatilgan oliy mas’uliyat– So‘z va Tafakkur tushunchalari bilan bog‘lanadi:

“So‘z savob hosil qilmog‘a qodir! Bu mukarram olamda inson bolasigina savob qilmoqqa qodir! Tangri taolo malaklariga, hatto eng qudratli farishtalariga ham u hadyani inoyat etmagandir. [1,258 b]

Tasavvufda inson – Asha’ul mavludat (yaratilmishlarning sarvari) va Ilohiy sirni tashuvchi tajalliy mazharidir. Malaklarga berilmagan bu “had” – iroda, savob qilish imkoniyati va eng muhimi So‘z qudratidir. Yozuvchi koinot hodisalarini (burgut, yulduzlar, sayyoralar, fasllar) insonni uyg‘otuvchi vosita sifatida tasvirlaydi. Ular insonga qarata “Ey Tangrimning mukarram yaratiq‘i, tafakkur qilmaysanmi? Aql yuritmaysanmi?” deya hayqiradi. Bu o‘rinda muallif Qur‘oniy “Afala tatafakkarun” (Oqil bo‘lmaysizlarmi, tafakkur qilmaysizlarmi?)[2,33b] da’vatini roman poetikasiga singdirgan.

Tasavvuf ruhiyatshunosligida nafs bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, uning eng yuksak va orzu qilingan darajasi – Nafsi mutmainna (orom olgan, sokin nafs)dir. Parchada ushbu holat bevosita Qur‘oni Karimning Fajr surasi [2,594] iqtibosi orqali kiritiladi:

“Ey xotirjam-sokin nafs, rozi bo‘lgan va rozi bo‘lingan holda Parvardigoring huzuriga qayt!”[1,258b]

Muallif ushbu oliy hayqiriqni insoniyatning dunyo jafolaridan chekinib, Tangrisiga nola qilishi va qilgan umridan afsuslanib, najot so‘rashi jarayonidagi eng yuksak “baxt-najot va oliy saodat” deb ataydi. Roman qahramoni Alisher Navoiy uchun “Unsiya” qissasining Koinot markaziga aylanishi – uning ruhiyati dunyoviy g‘avg‘olardan xali bo‘lib, Ilohiy husn va ma‘rifat bilan ulfatlashgani (uns hosil qilgani)ni bildiradi.

Tasavvuf fani va falsafasida inson borliqning nigini, koinotning ruhi va Ilohiy sifatlarning tajalligohi sifatida e‘tirof etiladi. Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romanida bosh qahramonning dunyoga kelishi va uning ma‘naviy-ijodiy qudratini oddiy insoniy tug‘ilish emas, balki Yuksak Olamlardan Zamin yuziga tushgan Ilohiy javhar hamda sirli xazina silsilasi sifatida badiiy talqin qiladi:

“Dafina edi, xazina edi. Yo‘q-yo‘q, chiqdi dema, balki yuksak olamlardan zamin yuziga tushdi... Olamda tengi yo‘q xazina yurak tublaridagi ilmlar, xulosalar va imon yog‘dusida yaraqlab yaratildi. Falakda quyosh bo‘lib nur sochdi.”[1,253b]

Muallif bu o‘rinda tasavvufdagi “Kuntu kanzan maxfiyyan...” (“Men yashirin bir xazina edim, bilinmoqni istadim...”) qudsiy hadisidagi Xazina (Kanz) simbolikasini Navoiy qalbi va ilmi bilan tutashtiradi. Navoiyning ruhiy olami shunchaki bilimlarni jamlagan idrok emas, balki “imon yog‘dusi” bilan yoritilgan ma‘naviy javhardir. Tasavvufiy nuqtai nazardan, bu holat qalbni tozalash va ilohiy nur bilan nurlanish darajasidir. Matnda Navoiy shaxsi va uning poetik tafakkuri insoniyat yaratilishining eng yuksak nuqtasi sifatida umumlashtiriladi:

“Odam Ato yaratilganidan buyon butun tarix bo‘yicha jamlangan mukammal ilmlarni o‘zida jam ayladi. Gavhar qiymatini bilmoq uchun zargarlikdan habaring bo‘lmoq darkor, yo‘qsa, sen uchun Tosh nima-yu Dur nima?”[1,252b]

Tasavvuf ta‘limotidagi Insoni Komil nazariyasiga ko‘ra, mukammal inson o‘zida barcha ilohiy va koinot sirlarini mujassam etadi. Isajon Sulton Navoiyning Turk ulusining bir o‘g‘loni bo‘lib yetishishini va “turk nazmini Abut-Turki bo‘lib” boyitishini uning ruhiy va intellektual tayyorgarligi bilan izohlaydi. Bu o‘rinda yozuvchi ikki muhim irfoniy simbolni qarama-qarshi qo‘yadi:

1. Dur – Ilohiy ma‘rifat, oshiqona ruh va tafakkur mevasi.
2. Tosh – Dunyoviy g‘aflat, zohiriy yuzaki qarash va ma‘rifatsizlik.

“Gavhar qiymatini bilish uchun zargar bo‘lmoq” sharti – tasavvufdagi Ahli dil (Dil ahli) va Ahli zohir (Tashqi shakl ahli) o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Navoiy yaratgan ma‘naviy xazinaning qadriga faqat ilohiy ma‘rifatdan bahramand bo‘lgan qalblargina yeta oladi.

Parchada koinotdagi barcha mavjudotning – jonli-yu jonsizning bu Ilohiy nurga (Navoiy qalbida zohir bo‘lgan ma‘rifatga) ta‘zim qilishi va faqat birgina unurning undan mahrum qolishi tasvirlanadi:

“Uning olamida shahodat keltirmagan biron mavjudot qolmadi. U olamda jonli-yu jonsiz – bari so‘z aytdi va olamlar gulto‘ji bo‘lmish insonga ta‘zim ayladi. Bir iblisgina bundan chetda qoldi va uning chirkin vasfu ta‘rifi mazkur xazinadan o‘rin olmadi...”[2,252b]

Bu tasvir Qur‘oni Karimdagi Odam Aotga farishtalarning sajda qilishi va Iblisning kibr sabab bundan bosh tortishi voqeasiga ishora (talmeh) qiladi. Isajon Sulton badiiy va irfoniy uyg‘unlik yaratishda Navoiyning ma‘naviy olamini Odamiyat nuri bilan tenglashtiradi. Ma‘rifat va Ilohiy nur tarqalgan joyda g‘aflat va iblisiy chirkinlik o‘z-o‘zidan siqib chiqariladi. Yozuvchi Xurosonning Hiriya bir inson qalbida porlagan bu nurni butun bashariyat ma‘naviyatini yorituvchi manbaa sifatida talqin etadi. Tasavvufiy va romantik nasrda tush (ro‘yo) shunchaki fiziologik hodisa emas, balki g‘ayb olamidan berilgan ogohlantirish, ruhning kelajak va o‘tmish bilan muloqot shaklidir. Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romanida qahramonning ruhiy tajribasini tush motivi orqali Majnun obrazi bilan transsendental tarzda bog‘laydi:

“Hatto yigitlik davrida Samarqandda ko‘rilgan o‘sha qo‘rqinch tush ham dostonga kirib keldi... Yosh Alisher ko‘rgan o‘sha tush endi Majnun tushiga aylanib abadiyat sari parvoz qildi.”[1,259b]

Bu o‘rinda yozuvchi ikki ma‘naviy qatlamni sintez qiladi: Navoiyning badiiy tushi – Samarqanddagi tolibi ilm davrida ko‘rilgan ruhiy holati ogohlantirish. Dostondagi Majnun tushi – Badiiy shartlilik asosida poetik matnga, ya‘ni “Layli va Majnun” dostonining fojia kulminatsiyasiga ko‘chgan allegoriya. Ushbu usul tasavvufdagi Ruhoniy ma‘naviy vorislik hodisasini ko‘rsatadi. Navoiyning o‘z ichki iztiroblari Majnun siymosiga ko‘chib, “baytlarga aylanadi”. Parchada keltirilgan tushning ramziy tahlili tasavvufiy va ma‘naviy-axloqiy jihatdan uchta asosiy timsolga bo‘linadi: Nar va moda kaptar – Ota-ona, ildiz, ma‘naviy va dunyoviy burch hamda mehr-muhabbat timsoli. Havoiy bo‘lgan kaptar bolasi – Nafs al-ammoraga, dunyoviy havaslarga va sahro (g‘aflat)ga berilib, o‘z ma‘naviy ildizlaridan uzilgan solik yoki inson obrazidir. Ikki burgut – Qazo va qadar, ajal va dunyo sinovlarining shafqatsiz barham beruvchi qudrati.

“Ular ikkovi noumid bo‘lib qaytganlarida, abadiy bir baloga uchrab qoldilar. Yuqoridan ikki burgut uchib kelib, bu ikki kaptarni bir luqma qildi...”[1,259b]

Tushning ta‘biri va fojiasi shundaki, ma‘naviy-ruhiy ildizidan, ota-onasining duosidan va ilohiy marhamatdan uzilgan har qanday harakat ota-onaning va pirovardida insonning ruhiy-jismoniy halokatiga olib keladi. Majnun tushdan uyg‘onib, “ota-onasi o‘lib, hayotining quyoshi qorayganini” anglab yetishi – tasavvufdagi g‘aflatdan uyg‘onish (Yaqaza) va dunyoviy fojia orqali mutloq Fano va Yolg‘izlik holatiga o‘tish bosqichidir. Matnning kirish qismida yozuvchi Navoiy ijodidagi ilhom va ruhiy yuksalish darajasini payg‘ambarlik mazaasidagi ilohiy simvollar bilan qiyoslaydi:

“Bu quvvatli ilhom go‘yo Nuh to‘foni kabi bo‘lib, inson ruhi lining to‘lqinlari uzra elardi. So‘zi Dovud qiroati kabi yangrar, samoda uchib borayotgan qushlar u qiroatdan to‘xtab qolar edilar.”^{1,253b]}

Nuh to‘foni – Qalb va ruhni dunyoviy chiqindilardan, nafsoniy illatlardan tozalovchi va yuvuvchi ilohiy ruhiy jo‘shqinlik holatidir. Dovud qiroati – Tasavvufdagi Samo va Savt (ilohiy ohang) ta’siridir. Dovud alayhissalomning sadosiga qushlar va tog‘lar jo‘r bo‘lganidek, Navoiyning baytlari ham koinot va tabiatni to‘xtatib qo‘ya oladigan ilohiy quvvatga ega deb talqin qilinadi.

Natijalar va muhokama. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani matnini tasavvufiy poetika va konsepsiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, romanda Navoiyning yoshlik, ta’lim hamda saltanatdagi vazirlik faoliyati davridagi sinovlar nafsni jilovlash jarayoni sifatida beriladi. Muallif nafsni tashqi g‘animlardan ko‘ra xavfliroq bo‘lgan “ichki mayl va xudbinlik” obrazida gavdalandiradi. Navoiyning vazirlik lavozimidan voz kechishi, saroy dabdabasi va dunyo matosidan ixtiyoriy ravishda uzilishi nafs-i ammora (yomonlikka undovchi nafs) ustidan g‘alaba qozonib, nafs-i mutma’inna (orom olgan nafs) bosqichiga o‘tishining amaliy va badiiy ifodasidir. An’anaviy biografik romanlarda Navoiy asosan buyuk shoir va odil davlat arbobi sifatida gavdalandirilgan bo‘lsa, Isajon Sulton talqinida uning komillik sari bosib o‘tgan ichki ziddiyatlari va nafs bilan qilgan ruhiy mujodolasi birinchi planga chiqadi. Muallif tasavvufdagi “xalvat dar Anjuman” (el ichida bo‘lib, ko‘ngli Haq bilan bo‘lish) qoidasi asosida Navoiyning jamiyatdan ajralmagan holda nafsni yengganini ishonchli ochib bergan. Romanning yakuniy qismlarida Navoiyning dunyoviy bog‘liqliklardan to‘liq uzilishi va o‘zlik (menlik) hissining Yo‘q bo‘lishi badiiy-simvolik vositalar orqali ifodalanadi. Romanda Fano hodisasining berilishi asarning kulminatsion va g‘oyaviy markazidir. Fano – bu shunchaki jismoniy o‘lim emas, balki Insoniy “Men”ning Ilohiy “O‘zi”da erib ketishi, Haq jamoliga yetishish (Vasl) hodisasidir. Isajon Sulton buni psixologik poetika vositasida chizib beradi: shoirning so‘nggi damlari jismoniy zaiflashuv emas, balki ma’naviy nurga chulg‘anish va Yaratuvchi visoliga yetishish bayrami sifatida gavdalanadi. Navoiyning hayotiy va ijodiy yo‘li ushbu fano va baqo (Haq bilan boqiy qolish) chorrahasida o‘z yakuniga yetadi.

Ilmiy xulosa. Sharq va G‘arb adabiyotida tasavvuf haqida qadimdan asarlar bitilgan. Mutafakkir Abu Homid al-G‘azzoliy: Tasavvufni islom dinining ruhi va ma’naviy asosi deb bilgan. U o‘zining “Ihyo ulum ad-din” (“Din ilmlarini jonlantirish”) asarida tasavvuf faqat nazariya emas, balki qalbni yomon illatlardan tozalash va amaliy axloqni go‘zallashtirish yo‘li ekanligini ta’kidlagan. Isajon Sultonning asarlarida ham aynan insonni qalban g‘o‘zal va axloqli bo‘lishga qaratilgan g‘oyalar mujassamdir.

Yozuvchining “Alisher Navoiy” romanida tasavvufiy qarashlar shunchaki nazariy g‘oyalar shaklida emas, balki murakkab simbolik-metaforik va tush poetikasi tizim orqali badiiy mujassamlashtirilgan. Asarda Fano va Baqo (pilla va urug‘ metaforasida), Insoni Komil va Odamiyat nuri (Xazina va Dur simbolikasida) hamda Taqdir va Ruhiy takomil (Samarqand tushi va kaptarlar allegoriyasi) izchil tadqiq etilgan. Yozuvchi Qur‘oniy oyatlar (Fajr surasi), qudsiy hadislar hamda payg‘ambarlar qissalari (Nuh, Dovud, Odam A.S.) va Sharq dostonchilik an‘analarini zamonaviy nasrning tafakkur va ruhiyat poetikasini mahorat bilan uyg‘unlashtira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulton, I. “Alisher Navoiy” Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. –2022 y
2. Alimov, U. “Qur‘oni Karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimai”. Toshkent: “O‘zbekiston musulmonlari idorasi”: – 2020
3. Sulton, I. “Boqiy darbadar.” Toshkent: “Tilsim”: –2023 y
4. Quronov, Dilmurod. “Adabiyotshunoslikka kirish.” – Toshkent: “Fan”: – 2007.
5. Haqqulov, Ibrohim. Navoiyga qaytish. – Toshkent: “Fan” – 2007.
6. Valixo‘jayev, Botirxon. “O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi.” – Toshkent: “O‘zbekiston” –2002.
7. Boltaboyev, Hamidulla. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” – 2008.
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/abuhomid-g-azzoliy>